2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan №7 (793), 2025-yil 9-aprel

facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

■ 4-gidrometallurgiya zavodining 15 yilligi oldidan

YETAKCHI VA ILG‘OR KORXONA

4-gidrometallurgiya zavodi kombinatning boshqa gidrometallurgiya korxonalaridan ba’zi jihatlari bilan ajralib turadi. Birinchisi, zavod rekord darajada qurilgani bilan tarix solnomasidan joy olgan. Chunki, “Zarmitan” oltin konlari negizida tog‘-ruda kompleksini qurish (2-bosqich)” loyihasiga muvofiq, zavod 2012-yil may oyida ishga tushirilishi kerak edi. Kombinat muhandis-texnik xodimlarining yuksak salohiyati va ulkan jamoaning sa’y-harakatlari bilan 11 oyda, ya’ni, muddatidan 21 oy oldin bajarildi. Shu boisdan, 2010-yil 30-avgust tarixdan milliy konchilik sanoati solnomasiga zarhal harflar bilan yozilgan sana sifatida joy olgan.

Ikkinchisi – zavod qurilishi chetdan hech qanday pudratchilar ishtirokisiz, jamoaning o‘z kuchi, mahalliy kadrlar ishtirokida barpo etilganidir. Bunday muvaffaqiyat kombinat jamoasining o‘ziga bo‘lgan ishonchi, vatanparvarligi va nimalarga qodirligini amalda isbotladi. Uchinchisi – jihozlash ishlari kombinatda ishlab chiqarilgan uskuna va ehtiyot qismlar hisobiga amalga oshirilganidir. Bu, loyihada ko‘zda tutilgan valuta mablag‘larini iqtisod qilish imkonini berdi.

To‘rtinchisi – zavod to‘liq gravitatsiya-sorbsiya texnologiyasi asosida ishlashi, shu yo‘l bilan ma’dandan qimmatbaho metall ajratib olishi va hozircha uning mamlakatimiz, hattoki, Hamdo‘stlik davlatlarida muqobili yo‘qligidir. Jumladan, zavod texnologik sxemasi va texnik jihozlanishi jihatdan Markaziy Osiyoda yagona bo‘lib, bu texnologiya yordamida bugun kutilganidan ham ziyoda samaradorlikka erishilmoqda. Misol uchun, zavod hozirgi kunda ma’dandan oltin ajratib olish darajasi (koeffitsiyenti) bo‘yicha kombinatning 9 ta qayta ishlash tarmog‘i orasida birinchi o‘rinda turadi. Korxonaning foydali komponentni ajratib olish ko‘rsatkichi 2024-yil hisob-kitoblariga ko‘ra, 93,2 foizni tashkil etdi. Va beshinchisi – ahil jamoa izlanish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, innovatsion va ratsionalizatorlik takliflari bilan zavod ishlab chiqarish quvvatini loyihada ko‘zda tutilgan ma’danni qayta

ishlash hajmini 1,8 million tonnadan 2 million tonnaga yetkazganidir. Texnologlar fikricha, bu natijaga erishish o‘ta murakkab, mashaqqatli jarayon bo‘lib, ulkan mehnat, tinimsiz izlanish va harakat talab etadi.

– Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, mazkur yangi zavod barpo etilgunga qadar “Zarmitan” sanoat maydonidagi konlardan qazib olingan ma’danni qayta ishlash uchun 80 kilometr uzoqda joylashgan “Marjonbuloq” oltin ajratish sexiga tashilgan. Bu, albatta, ortiqcha vaqt, mehnat, sarf-xarajat bo‘lgan, – deydi zavod direktori Nusratillo Hayitov. – Talab va ehtiyojdan kelib chiqib, hududda zamonaviy zavod bunyod etilishi kombinat uchun ham, Janubiy kon boshqarmasi uchun ham yangi imkoniyatlar, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratdi. Quvonarli jihati, bugun kombinatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining 7 foizi mazkur zavod hissasiga to‘g‘ri keladi.

Har qanday sanoat korxonasi strategiyasida xarajatni, tannarxni kamaytirish orqali ish sur’ati va ishlab chiqarish hajmini oshirish, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlash turadi. Bunda, tejamkorlik yo‘lini izlash, topish va tatbiq etish asosiy rol o‘ynaydi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati bunday dolzarb muammolarga yechim topishga allaqachon kirishgan, hattoki, bu yo‘nalishlarda ma’lum yutuqlarga erishgan ham. Buni birgina, 4-gidrometallurgiya zavodi misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Joriy yilda bu korxona tashkil topganligiga 15 yil to‘ladi. Mana shu davr oralig‘ida 500 kishilik jamoa harakatdan, izlanishdan, o‘sish va yangiliklar yaratishdan to‘xtagani yo‘q. Buni o‘tgan davrda zavodda 26,7 million tonna ma’dan qayta ishlangani, shuningdek, keyingi yillarda amalga oshirilgan ishlar, qo‘lga kiritilgan natijalar ham to‘liq tasdiqlaydi. Keyingi yillarda mutaxassislarning ratsionalizatorlik takliflari bo‘yicha maydalash gravitatsiya va ohak eritmasini tayyorlash bo‘limida 6-konsentrator, tayyor mahsulotlar uchastkasida boyitilgan mahsulotni jadal sianlash tuguni 3-reaktorining ishga tushirilishi natijasida ma’dandan oltinni katod cho‘kmasida ajratib olish ko‘rsatkichi dastlabki yillardagi 35 foizdan 44 foizgacha oshdi. Bu esa ma’dandan oltin ajratib olish koeffitsiyentini oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Davomi 2-betda

■ Xabarlar

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida transport sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda og‘ir yuk tashuvchi avtoag‘dargichlar va tog‘-kon texnikalari tarkibi muntazam yangilanib borilayapti.

YANGI TEXNIKALAR – YANGI IMKONIYATLAR

Markaziy kon boshqarmasining Avtomobil transporti boshqarmasi hamda 7-sonli avtokorxonaning uzoq yillar ishlatilgan texnikalari zamonaviy, yuqori texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega tog‘-kon texnikalariga bosqichma-bosqich almashtirilmoqda. Yaqinda 7-sonli avtokorxonaga yuk ko‘tarish quvvati 25 tonna bo‘lgan 4 ta yangi MAN TGS avtoag‘dargichlari keltirildi va “Oltinni uyumda eritmaga o‘tkazish sexi” konida ishga tushirilgan bo‘lsa, Avtomobil transporti boshqarmasiga keltirilgan 10 ta LiuGong CLG855 markali frontal yuklagichlardan “Muruntov”, “Besapantov” va “Balpantov” konlarida foydalanila boshladi.

“Mazkur avtoag‘dargichlar zamonaviy bort kompyuterlari bilan jihozlangan bo‘lib, ulardagi maxsus moslama ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosozliklar haqida alohida belgilangan kodlar orqali tezkor ma’lumot taqdim etadi. Bunday ulkan va zamonaviy transport vositalarini ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish ishlari har ikkala transport korxonasida to‘laqonli amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy, yuqori yuk ko‘tarish quvvatiga ega avtoag‘dargichlardan foydalanish ish samaradorligini oshirish bilan birga haydovchilarga qulay ish sharoitini yaratmoqda”, – deydi MKB direktorining transport bo‘yicha o‘rinbosari Axat Qurbonov.

Joriy yilda zavod va konlarda ishlab chiqarish quvvatlari barqarorligini ta’minlash va yangi loyihalarni amalga oshirish maqsadida investitsion loyihalar doirasida yuk ko‘tarish quvvati 90 tonnadan 225 tonnagacha bo‘lgan 130 taga yaqin og‘ir yuk ko‘taruvchi avtoag‘dargichlar, 30 tacha avtogreyder, frontal yuklagich, g‘ildirakli va zanjirli buldozer kabi yo‘l-qurilish mashinalari hamda 50 tadan ortiq ixtisoslashtirilgan transport vositalari xarid qilinishi rejalashtirilgan.

Nafosat ZIYOYEVA.

“Navoiyuran” davlat korxonasida “O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini "Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili"da samarali amalga oshirish masalalariga bag‘ishlangan iqtisodiy o‘qish bo‘lib o‘tdi.

DAVLAT DASTURI O‘RGANILMOQDA

Korxona direktorlari, boshqarma, bo‘lim va xizmat boshliqlari hamda tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari ishtirok etgan iqtisodiy o‘qishda belgilangan vazifalarni samarali bajarishdagi shaxsiy mas’uliyat masalalari muhokama qilindi.

Iqtisodiy o‘qish mavzusiga muvofiq, korxonaning Mehnat muhofazasi va barqaror rivojlanish bo‘yicha direktori S.Nurnazarov va Atrof-muhit muhofazasi xizmati boshlig‘i A.Xayitmuratovlar tomonidan ma’ruzalar qilindi.

Ular “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili" doirasida amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturining mazmun-mohiyati va asosiy yo‘nalishlari haqida batafsil ma’lumot berishdi. Davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, “Navoiyuran” DK tomonidan amalga oshiriladigan ishlar va ularning ijrosini samarali tashkil etish masalalariga atroflicha to‘xtalib o‘tildi.

Shuningdek, mazkur hujjat ijrosini samarali tashkil qilish, belgilangan vazifalarni to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash bo‘yicha tegishli topshiriq va ko‘rsatmalar berildi hamda ijro muddatlari belgilab olindi. Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlariga "Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili" Davlat dasturi doirasida belgilangan topshiriqlar yuzasidan vazifalar yuklatildi.

Mazkur iqtisodiy o‘qishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va Davlat dasturining ijrosini ta’minlashga qaratilgan aniq mexanizmlar, muddatlar va mas’ullar belgilangan kompleks chora-tadbirlardan iborat “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi.

Nargiza KENJAYEVA,
“Navoiyuran” DK hujjatlar ijrosini nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati boshlig‘i.

■ Mahalliylashtirish

DAVR TALABI ASOSIDA

Ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlikka erishishda mahalliylashtirish dasturining ro‘yobga chiqarilishi muhim ahamiyatga ega. Bu kon-metallurgiya sanoati korxonalariga ham to‘la taalluqlidir. Shu boisdan kombinat bo‘linmalarida importni qisqartirish, mahalliylashtirish darajasini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan ishlar olib borilmoqda.

Yarim asr muqaddam o‘z faoliyatini boshlagan Markaziy kon boshqarmasining Markaziy ta’mirlash-mexanika sexida ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida, sex 2024-yilda zavodga aylantirildi. Bugungi kunda zavodning bitta sex, oltita uchastka, xizmat va byurolarida 600 nafardan ortiq mutaxassis va ishchi-xodimlar faoliyat ko‘rsatib kelishayapti. Korxonada mahalliylashtirish dasturi doirasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga oshirilmoqda. 2020-yilda 4 ta loyiha bo‘yicha 7,9 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilda 12 ta loyiha doirasida 31,7 milliard so‘mga yetdi.

Davomi 3-betda

■ Yashil makon

EKOLOGIYANI YAXSHILASH YO‘LIDA

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishida yaqin istiqbolda erishiladigan maqsadlar belgilab berilgan.

Shimoliy kon boshqarmasida hududda ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki, “Yashil belbog‘”lar ekologik holatni yaxshilash, tuproq eroziyasining oldini olish, kuchli shamol ta’sirida qumlar va tuzlar ko‘chishini bartaraf etish hamda mintaqada mo‘tadil mikroiqlim sharoitini yaratishda foydali ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Shu boisdan 3-gidromelalurgiya zavodi jamoasi bu masalaga alohida e’tibor qaratyapti. Yaxshi niyat bilan korxona hududida o‘tgan yillarda 7 ming tup manzarali daraxtlardan iborat “NKMK 65 yilligi” bog‘i barpo etilgandi. Joriy yil bahorda yana 12 ming tup qayrag‘och, shumtol kabi cho‘l sharoitiga mos manzarali ko‘chatlar o‘tqazilib, yangi “Yashil belbog‘” tashkil etildi.

Shuningdek, kon boshqarmasida ekologiyani yaxshilash, transport vositalarini muqobil yoqilg‘i turlariga (metan, propan)o‘tkazish, elektromobillarni ko‘paytirish, “Toza havo” hamda “Avtomobilsiz kun” tadbirlarini kuchaytirish masalalari ham diqqat markazida bo‘lyapti. 1-avtokorxonada mavjud 316 ta texnikalarning 100 dan ortig‘i propan, metan gaz yoqilg‘isiga o‘tkazilgani va elektromobillar xarid qilinganligi buning isbotidir.

Laylo KARMOVA.

“MURUNTOV” KONIDA

portlatish ishlari takomillashtirilmoqda

“NKMK” AJ Markaziy kon boshqarmasining “Muruntov” konida portlatish ishlariga alohida e’tibor beriladi. Zarafshonlik konchilar portlatish ishlarida jahonning eng so‘nggi texnologiyasini amalda xavfsiz va samarali qo‘llashi kombinatning boshqa bo‘linmalariga andoza bo‘lib kelmoqda.

Yaqinda portlatishda foydalaniladigan initsiyalovchi vositalarning quduq ichida 5 ming va yuza qismda 400 millisekundgacha sekinlashtiruvchi xususiyatga ega mutlaqo yangi turi ilk bor sinovdan o‘tkazildi.

Yangi turdagi initsiyalovchi vositalarni portlatish ishlarida qo‘llash natijasida ma’danli tog‘ jinslarining ma’dansiz tog‘ jinslari bilan aralashib ketish darajasi va tog‘ jinslarining atrof-muhitga otilishi kamaygani aniqlandi.

Dilshod BOBOMURODOV.

■ 4-gidrometallurgiya zavodining 15 yilligi oldidan

YETAKCHI VA ILG‘OR KORXONA

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Elektr ta’minoti tizimida energiya sarfini kamaytirish, tegirmonlar to‘xtashining oldini olish maqsadida, “Zaxirani tezkor avtomatik ulash (BAVR)” qurilmasi ishga tushirildi. Qurilmaning ishga tushirilishi asosiy texnologik uskunalarning ish vaqtini uzaytirib, uskunadan foydalanish koeffitsiyenti oshishida samarali natija bermoqda.

– Bugun hayotimizga “yashil iqtisodiyot”, “yashil energiya”, “yashil texnologiya” kabi yangi talqinlar kirib kelib, buni amalda qo‘llash ishlab chiqarish tarmoqlari uchun ham kundalik vazifaga aylandi. Ayni paytda kombinatda bu borada keng hajmda ishlar olib borilmoqda, – deydi bosh muhandis Eliboy Xolmurodov. – Zavod jamoasi bu masalaga alohida e’tibor qaratib, amalga oshirish bo‘yicha peshqadamlar safida bormoqda. Xususan, energiyatejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo‘yicha umumiy quvvati 1 ming kVt bo‘lgan quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi. Ushbu qo‘shimcha imkoniyat tufayli o‘tgan yili 1,1 million kVt elektr energiyasi ishlab chiqilib, 11 milliard so‘m mablag‘ni iqtisod qilishga erishildi.

Xalqimizda: “Izlagan imkon topar”, degan naql bor. Korxonada qo‘l urilgan xayrli tashabbuslardan yana biri - 50 dona suv isitish gelioqurilmalari ishga tushirilganidir. Buning pirovardida 158,6 ming kVt elektr energiyasi iqtisod qilindi.

Suv - hayot manbai! Uning qadr-qimmati hozirgi globallashuv, suv tanqisligi jarayonida yaqqol sezilmoqda. Ma’lumki, gidrometallurgiya zavodlari texnologik jarayonlari asosan suv bilan bog‘liq. Bu esa, o‘z-o‘zidan, har qatrasi tilloga teng obihayotni tejash, undan oqilona foydalanishni taqoza etadi. Zavodda bu borada ham ijobiy ko‘rsatkichga erishilyapti. Korxonaning sutkasiga 7,5 ming kubometrga yaqin suvga bo‘lgan ehtiyoji yaqin vaqtlargacha to‘liq “To‘sinsoy” suv omboridan olinadigan obihayot hisobiga ta’minlanar edi. Yaqinda buning ham texnik yechimi topildi. Ya’ni, zavoddan uzoq bo‘lmagan “G‘ujumsoy” va “Zarmitan” shaxtalaridan chiqqan suvdan foydalanish, buning natijasida sutkasiga 4,2 ming kubometr hamda zavod chiqindi omboridan 1 ming kubometr qaytarma suv yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi. Natijada suv omboridan har sutkada olinadigan suv hajmi 2,5 ming kubometrga pasaytirildi.

Quvonarli jihati, zavod jamoasi bugun asosan yoshlardan tarkib topgan. Ular rahbarlik lavozimlari, mutaxassis va muhandis-texnolog vazifalarida ishlab, o‘zlariga bildirilgan ishonchni fidoiyligi bilan oqlamoqda. Davronxo‘ja Mirzayev, Asilbek Jumanov, G‘ayrat Jumanov, Eldor Qodirov, Dadaxon Hakimov, Sayfulla Isroilovlar o‘z bilimi va mehnati bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lib kelayotgan mutaxassislardan hisoblanishadi.

Zavod ishchi-xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ularni ijtimoiy himoya qilish ham namunali yo‘lga qo‘yilgan. Hech kim e’tibordan chetda emas. Chunki, har qanday xodimning ishga munosabati, hayotdan roziligi yuqoridagi mezonlar barqarorligi, mujassamligi bilan belgilanadi. Zavodda bo‘lganimizda jamoa barcha ishchi-xodimlari yuz-chehrasida mamnunlik, shukronalik ifodasini ko‘rib, ularga havasimiz keldi.

Dildora ATABAYEVA,
Axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhi rahbari.

■ Bugunning gapi

O‘QUV SEMINARI O‘TKAZILDI

Butun yurtimizda bo‘lganidek, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham korrupsiyaga qarshi tizimli ishlar, targ‘ibot tadbirlari olib borilmoqda. “Qizilqum” kon boshqarmasida ana shu mavzuda o‘quv-seminari bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Navoiy ixtisoslashtirilgan prokurori N.Tilovov, “NKMK” AJ Komplayens xizmati sho’ba boshlig‘i A.Bozorov hamda viloyat adliya boshqarmasi bosh maslahatchisi P.O‘roqovlar respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, bu borada bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar, shuningdek, “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Odob-axloq qoidalari” va “Manfaatlar to‘qnashuvi” mavzularida chiqishlar qildi.

– Korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir yurtdoshimizning vijdon ishidir. Bu borada targ‘ibot ishlarini kuchaytirib, aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz vaziyatni shakllantirish birinchi darajali vazifamizdir.– Shu maqsadda, kombinat tizimidagi barcha bo‘linmalarda targ‘ibot tadbirlari rejali tarzda olib borilmoqda. Bugungi tadbirimiz g‘oyasi ham aynan shu mavzuga qaratilgani bilan ahamiyatlidir, - dedi o‘z so‘zida A.Bozorov.

O‘quv-seminari yakunida ishchi-xodimlar mas’ullardan o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Dildora TO‘LQINOVA.

Korrupsiya jamiyat rivojiga to‘sqinlik qiluvchi omil bo‘lib, ijtimoiy adolat va iqtisodiy taraqqiyotga zarar yetkazadi va davlat boshqaruvida ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – BURCHIMIZ!

Har bir inson halollik va qonuniylik tamoyillariga rioya qilsagina, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz madaniyat shakllanadi. Bugun mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida huquqiy islohotlar olib borilmoqda va davlat siyosati yuritilmoqda. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonunlar va dasturlar qabul qilinmoqda, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi davlat organlarining roli va ahamiyati oshirilmoqda.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori sohadagi tub islohotlarga poydevor bo‘ldi. Ushbu hujjatga muvofiq 2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

“Navoiyuran” davlat korxonasida ham mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida 4 ta shtat birligidan iborat komplayens xizmati tashkil etilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni takomillashtirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish korxonaning komplayens xizmati tomonidan amalga oshiriladigan asosiy vazifalar etib belgilandi. Shunga muvofiq, ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Korxonada sohaga oid 16 ta ichki me’yoriy hujjatlar qabul qilindi, mehnat shartnomalari hamda xaridlar bo‘yicha shartnomalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shartlar kiritilishi yo‘lga qo‘yildi, shuningdek, davlat xaridlari sohasida nazoratni amalga oshirish maqsadida kontragentlarni tekshirish tizimi yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi yuzasidan korxona xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha deklaratsiyalar to‘ldirilishi ta’minlanib, aniqlangan holatlarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilandi. Xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik prinsipini shakllantirish maqsadida 2024-yilda 20 dan ortiq tushuntirish-profilaktik tadbirlar o‘tkazildi.

Korxonaning rasmiiy sayti hamda ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va ushbu yo‘nalishdagi ichki me’yoriy hujjatlar joylashtirilib, tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar doimiy yoritib borilmoqda. 2024-yilda korxonaning rasmiy veb-sayti, facebook, instagram va telegram ijtimoiy tarmoqlari orqali sohaga oid 15 ta profilaktika ko‘rinishidagi materiallar joylashtirildi.

9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan “Navoiyuran” davlat korxonasida hamda tarkibiy bo‘linmalarida Aksilkorrupsiya oyligi doirasida 2024-yilning 4-dekabr kuni “Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi” mavzusida “Ochiq eshiklar kuni” yuksak saviyada o‘tkazildi hamda OAV orqali keng yoritildi.

Bugungi kunda ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari asosida korrupsiyaga karshi kurashish menejmenti va ISO 37301:2021 talablari asosida komplayens menejment tizimlari hujjatlarini ishlab chiqish va joriy etish ishlari olib borilmoqda.

Joriy yilning 5 mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishi o‘tkazildi.

“Navoiyuran” davlat korxonasida ham ushbu vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish hamda korxona jamoasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish chora-tadbirlari belgilab olindi. Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov – bu korrupsiyadir. Korrupsiyaga qarshi kurashda barchamiz yagona kuch bo‘lib harakat qilsak, albatta, yanada katta ijobiy samaraga erishamiz”.

Buning uchun korrupsiyaning oldini olishda ta’lim va targ‘ibotni kuchaytirish, yoshlarni halollik va adolat ruhida tarbiyalash, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikning korrupsiyaga qarshi kurashdagi roli va ahamiyatini oshirish muhim hisoblanadi. Korrupsiyasiz kelajak sari har bir fuqaro o‘z faoliyatida poklik va halollikka amal qilib, jamiyatda huquqiy savodxonlikni oshirsa va jamoaviy harakat qilinsa, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin bo‘ladi.

Farruxbek YUSUPOV,
“Navoiyuran” DK komplayens xizmati boshlig‘i.

■ Iqtidorli bolalar – yurt kelajagi

Yaqinda Birlashgan Arab Amirliklari davlatining Dubay shahrida “DOWE GREEN” maktabi va O‘zbekistondagi “IDIYEVLAR MAKTABI THE BEST” O‘quv markazi hamkorligida matematika, ingliz tili, rus tili fanlari va mental arifmetika bo‘yicha Xalqaro olimpiada bo‘lib o‘tdi. Olimpiadada o‘ndan ortiq davlatlardan yigit-qizlar ishtirok etishdi. Quvonchli jihati shundaki, navoiylik olti yoshli Shohruzjon mazkur Xalqaro olimpiadada mental arifmetikadan o‘z yosh toifasi bo‘yicha birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.

SHOHRUZJONNING KATTA YUTUG‘I

Navoiylik Shohruzjon mental arifmetika bo‘yicha xalqaro olimpiadada g‘olib bo'ldi

Olimpiada har bir ishtirokchi uchun esda qolarli ko‘tarinki ruhda o‘tdi hamda kelgusi g‘alabalar uchun muhim qadam bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shohruzjon Xidirov 2019-yilning 21-mart kunida tug‘ilgan. U Navoiy shahrida joylashgan “New Era Kids” xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotining eng iqtidorli tarbiyalanuvchilaridan biridir. U ustozi Dildora Umarovadan qisqa muddatda mental arifmetikadan dastlabki saboqlarni puxta o‘zlashtirib oldi.

– Dadasi bilan farzandimning xalqaro musobaqada muvaffaqiyatli qatnashishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga harakat qilyapmiz. Uning qiziqishi va intilishlarini inobatga olib, qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi uchun mental arifmetika to‘garagiga bergan edik. Mana bugun o‘g‘limning qo‘lga kiritayotgan natijalaridan quvonib o‘tiribmiz. Xonasi turli medallar shodasi, kuboklar bilan bezalgan. O‘g‘lim Shohruzjon mental arifmetikadan tashqari sportning taekvando turiga ham qatnashadi. Ayniqsa shaxmat, shashka o‘ynash jonu dili. Har bir ota-ona uchun dilbandining baxtu iqbolini va uning erishgan yutuqlarini ko‘rish – eng oliy saodatdir, – deydi uning onasi Parizod Begimqulova.

Ha, albatta mehnat o‘qishdan boshlanadi, deyishadi. Shohruzjonning iqtidorini payqagan va uni ro‘yobga chiqarish uchun har tomonlama g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, sharoit yaratib berayotgan otasi Navro‘z Ollonov Navoiy kon-metallurgiya kombinatida mas’uliyatli lavozimda faoliyat yuritib kelayapti. U ish bilan juda band ekanligiga qaramasdan Shohruzjonni qo‘llab-quvvatlab, bilim olishiga alohida e’tibor qaratmoqda.

– Jajji shogirdlarimning xalqaro musobaqalarda ko‘rsatgan quvonchli natijalari menga yanada kuch va ishonch bag‘ishlaydi. Mental arifmetika bilan shug‘ullanish bolalarni zehnli o‘stirishda muhim o‘rin tutadi. Bu mashg‘ulot bolajonlarning sonlarni tasavvurida tez hisoblashni o‘zlashtirishi orqali xotirasi mustahkamlashi, aqliy qobiliyati rivojlanishiga xizmat

qiladi. Mental arifmetika bo‘yicha olimpiadalarning o‘tkazilishi esa bolajonlarni ilmga intilishini kuchaytirish, ularni g‘alabaga ruhlantirishda katta ahamiyatga ega. Shohruzjon eng intiluvchan o‘quvchilarimdan biri. Mazkur musobaqada u uch daqiqa ichida 60 ta misolni bajarishga muvaffaq bo‘ldi. Oldinda bizni yana ko‘plab musobaqalar kutmoqda. Iyun oyida Turkiya davlatida bo‘lib o‘tadigan navbatdagi xalqaro musobaqaga alohida tayyorgarlik ko‘rmoqdamiz. Unda 20 dan ortiq davlat vakillari ishtirok etishadi, - deydi mental arifmetika to‘garagi o‘qituvchisi D.Umarova.

Yurtimiz kelajagi uchun tayanch bo‘ladigan Shohruzjondek iqtidorli yoshlarimiz safi kengayaversin, deymiz.

Dildora KARIMOVA.

■ Dolzarb mavzu

Ta’limda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash degan talqin bor. Birinchisi, tushunarli, bu – bevosita oliygohlarga taalluqli. Ikkinchisi esa, bu – korxonaning ichki strategiyasi. Ya’ni, ichki imkoniyati, talab va ehtiyojdan kelib chiqib belgilanadigan masala. Bugun biz to‘xtaladigan mavzu, bu – kadrlarni o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash to‘g‘risida. Haqiqatda, bu mavzu o‘ta jiddiy va dolzarb. Xush, bu yo‘nalishda nima gaplar? Shu haqida “Navoiy KMK” AJ O‘quv markazi direktori o‘rinbosari Ne’matullo Ahatov bilan suhbatlashdik.

O‘QUV MARKAZLARIDA NIMA GAP?

- Kombinatimiz asosan ishlab chiqarish bo‘linmalaridan iborat. Barcha texnika va texnologiyalar zamonaviy, katta qiymatga ega. Ularni oliygoh, kollej, kasb-hunar maktablari va xususiy o‘quv kurslarini tugatib kelgan yoshlarga ishonib topshirish qanchalik to‘g‘ri? Keling, oldin shu savoldan mantiq izlaylik! Albatta, bugun safimizga kelayotgan talaba yoki o‘quvchida nazariy bilim bor, ammo tajriba yo‘q. Ya’ni, ishlab chiqarishdan yiroq, uquvsiz bo‘ladi. Jaydari tilda aytganda: hali ustoz ko‘rmagan.

Bu, bizdan ilg‘or xalqaro tajribalar asosida yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni talab etadi. Shu bois, biz ularni ishlab chiqarishga moslashtirish, malaka va ko‘nikmalarini oshirish, bir so‘z bilan aytganda, qayta tayyorlashimiz zarur. Bunga esa bugungi davrga mos o‘quv dasturlari, qo‘llanmalar kerak bo‘ladi.

Xush, bu yo‘nalishda kombinatda qanday imkoniyatlar mavjud? Xabaringiz bor, korxonamiz bu borada ancha ildamlab ketgan. Kadrlarni qayta tayyorlash bo‘yicha boshqa sanoat korxonalari ibrat olsa arzigulik tizim, ko‘p yillik tajriba maktabi, eng muhimi, mustahkam moddiy-texnika bazasi mavjud.

Yildan-yilga sanoat, energetika va axborot texnologiyalari rivojlanib, yangi-yangi majmualar ishga tushirilyapti. Albatta, buning uchun bilim va malakaga ega mutaxassislar kerak. Yangi ishlab chiqarish vositalarini amalga tatbiq qilish, ularning mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishdagi samaradorligini ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalar ilg‘or xalqaro tajribalar asosida yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni talab etadi. Buning uchun kombinatimizda 3 ta o‘quv markazi, 2 ta o‘quv-kursida har yili ko‘plab yosh mutaxassislar kasbga o‘qitilmoqda. Ular uchun malaka oshirish kurslarini joriy etganmiz. Birgina o‘tgan yilning o‘zida 15,3 ming nafarga yaqin ishchi, rahbar va muhandis-xodimlarning malakasi oshirildi. Shulardan 2,4 ming nafar rahbar va muhandis-texnik xodim sohasi bo‘yicha respublika oliy o‘quv yurtlari, mamlakatimiz va xorijiy malaka oshirish markazlarida malakasini oshirdi. Shuningdek, 5 ming nafarga yaqin ishchi kasb-hunarga tayyorlanib, ikkinchi mutaxassisliklarni o‘zlashtirishdi. Zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li – bu mashg‘ulotlarning interfaol, innovatsion usullar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. O‘quv markazimizda yuqori malakali mutaxassislar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari bu borada o‘z mahoratlarini namoyon etib kelishmoqda. Ular tomonidan nazariy va amaliy tarzda olib borilayotgan mashg‘ulotlar nafaqat mutaxassis-xodimlar malakasining o‘sishi, balki umuman ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. O‘ylaymanki, olingan bilim va ko‘nikmalar mutaxassislarning ishini sezilarli darajada osonlashtiradi, muammolarni tezroq va samaraliroq hal etish imkonini beradi.

Ayniqsa, bir qator nufuzli mahalliy va xorijiy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikda olib borayotgan ishlarimiz o‘zining ijobiy samarasini berayapti. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Standartlar instituti, “Kontexnazorato‘quv” davlat muassasasi, NDKTU, TTU va boshqa ilmiy muassasalar shular jumlasidandir. Shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tish joizki, o‘tgan yili “Leapfrog Geo” dasturi bo‘yicha Rossiya hamda Qozog‘iston kompaniyasi bilan hamkorlikda xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qaratilgan o‘quv kurslari kutilganidan samarali o‘tdi.

Islohotlarga barchamiz birdek hissa qo‘shishimiz lozim. O‘quv markazi xodimlari bu borada asosiy drayver hisoblanadi. Zamon kun sayin yangilanmoqda, demak, shunga muvofiq ravishda mamlakatimizda ustoz-murabbiylar ham bilimi, tajriba va mahoratini yangilab, oshirib bormog‘i zarur. Bugun o‘n yil avvalgi uslublar asosida dars o‘tib, ta’lim berish o‘zini oqlamaydi. Ayni damda jahonning ilg‘or ta’lim tizimlari jarayonga sun’iy intellekt imkoniyatlarini keng integratsiya qilish ustida bosh qotirmoqda. Shubhasiz, keyingi o‘n yillikda ular bu borada sezilarli natijalarni qayd eta boshlaydi, degan umiddaman.

Dildora KARIMOVA suhbatlashdi.

■ Ко Дню работников в сфере геологии Республики Узбекистан

В далекие 60 годы прилетали на вертолетах геологи осматривали горы Гобдунтау и Марджанбулак, вели съемочные работы. Все эти события происходили на глазах местной детворы Галляаральского района Джизакской области. Одному мальчишке особенно любопытно было наблюдать за геологами, они казались ему такими интересными и умными, а сама профессия, загадочной, необыкновенной. В сердце закралась мечта, вырасти и стать геологом. Окончив среднюю школу, Бахриддин Лапасов поступил на вечернее отделение Института связи в Ташкенте, но душа требовала другого.

ЖИЗНЬ ГЕОЛОГА

В 1970 году призван в армию, служил в артиллерийских войсках в Казахстане. После демобилизации в 1972 году вернулся в столицу, но не в прежнее место учебы. Ушел из института ради будущей профессии, которая стала смыслом всей его жизни. Студенческие годы на геологоразведочном факультете Ташкентского политехнического института, пожалуй, самое интересное, увлекательное и золотое время, которое Бахриддин Лапасов вспоминает с теплом и нежной грустью.

Трудовую деятельность начал в 1977 году участковым геологом карьера строящегося Марджанбулакского золоторудного комбината. Возводилась золотоизвлекательная фабрика, и одновременно вскрывали запасы месторождения к отработке. Бахриддин Лапасович одним из первых геологов, приехавший в Марджанбулак по направлению, начал эксплуатационную разведку в карьерах месторождения. Он обеспечивал нормативы подготовленных и готовых к выемке запасов руды и золота. 4 октября 1980 года при участии Шарафа Рашидова видного государственного деятеля Узбекистана торжественно запустили фабрику в работу!

- С вводом фабрики в эксплуатацию на переработку отгружали руду с качественным содержанием, - рассказывает Б.Лапасов. – Тогда я руководил геологической службой рудника, сначала старшим геологом, позже главным геологом. В то время на Марджанбулакском рудном поле разведочные работы велись Галляаральской экспедицией объединения «Самаркандгеологии». С геологами экспедиции проводились совместные работы по достоверности отрабатываемых запасов месторождения и укреплению минерально-сырьевой базы рудника. До 1989 года я трудился в Марджанбулакском золотодобывающем руднике.

Бахриддин Лапасов с уважением и гордостью рассказывает о совместной работе с Кувандиком Санакуловым, когда он руководил фабрикой: «Встречались по утрам на рудной площадке, следили за состоянием рудообеспечения, на совещаниях решали производственные вопросы. Благодаря слаженной, дружной работе геологов рудника и технологов извлекательной фабрики месячные и годовые планы выпуска драгоценного металла перевыполнялись, рудник был в числе передовиков среди горнодобывающих предприятий объединения «Узбекзолото»!

В 1989 году Бахриддин Лапасов избран председателем Марджанбулакого городского Совета народных депутатов. Через 5 лет вернулся в родной коллектив Марджанбулакского рудника главным инженером, а позже переведен главным геологом. С 1999 по 2002 годы работал в старательской артели «Кызылкум» подземным геологом на участке Каракутан. С 1 июля 2002 года участок присоединили в Навоийский ГМК, где Бахриддин Лапасов работал главным геологом до 2010 года. Следующие 12 лет он трудился в Южном рудоуправлении, на ГМЗ-1, а с 2022 года Бахриддин Лапасович переводится ведущим инженером геологом в геологический отдел управления АО «НГМК». И сразу приступает к ответственным задачам, которые ставит перед ним руководство.

- За прошедший период с коллегами проанализировали состояние запасов по участку «Урталик» (подземный) и рудника «Гужумсай» Южного рудоуправления, приняли действенные меры по наращиванию запасов на глубоких горизонтах подземным бурением скважин, - делится Б.Лапасов. - На участке Урталик работу начали с 2024 года и на последнем горизонте +660 метров подготовлена камера для бурового станка. В прошлом году нами проведен анализ состояния и движения запасов по месторождениям и участкам Зиаэтдинского рудного поля. По состоянию на 1 января 2024 года выявлен значительный прирост - десятки тонн золота, по всему рудному полю включая и подземные действующие участки. Совместно с И.О.Хамроевым – заместителем главного геолога комбината разработали программу «Перспективы освоения и развития геологоразведочных работ по золоторудным месторождениям и участкам Зиаэтдинского рудного поля до 2030 года» с книгой-альбомом. В программе затронуты вопросы планомерного проведения разведочных работ по месторождениям, что позволяет получить прирост запасов для укрепления минерально-сырьевой базы РУ «Кызылкум» (ГМЗ-1) также дает возможность увеличить переработку руд из запасов рудного поля, как из подземных, так и открытых горных работ. Нами в 2023 году завершен отчет «Сопоставление данных разведки и эксплуатации в пределах контуров запасов, утвержденных в ГКЗ» по месторождению Аристантау для списания запасов. На основании положения «О порядке списания с баланса пользователя недр запасов полезных ископаемых, добытых и потерянных в процессе добычи» впервые мною разработана и утверждена главным инженером АО «НГМК» А.Ф.Равшановым методика разработки «Сопоставление данных разведки и эксплуатации в пределах контуров запасов утвержденных ГКЗ». Методика служит пособием для пользования в производственной деятельности геологических служб рудоуправлений по оформлению списания запасов.

Самоотверженный труд был высоко оценен руководством комбината, Бахриддин Лапасович награжден нагрудным знаком «Горняцкая слава» III и II степеней. Почти полвека он доказывает верность выбранному делу, неравнодушие к судьбе комбината.

Ситора ЯТИМОВА.

■ Mahalliylashtirish

DAVR TALABI ASOSIDA

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

– Zavodimizda mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida metallarga lazer orqali ishlov berish dastgohlarini yo‘lga qo‘yish, zavod hududida olib boriladigan gaz-olovli ishlar uchun kislorodni quvurlar orqali yetkazib berish bo‘yicha loyiha hujjatlari ustida ish olib borilmoqda. Mahalliylashtirish dasturi doirasida konveyyerlar uchun 2023-yilda 3728 ta rolik tayyorlangan bo‘lsa, 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich 10 mingtaga ortdi. Joriy yilda import o‘rnini bosuvchi 144 turdagi 17 ming 682 ta mahsulot, jumladan “HITACHI” YeX-1200, YeX-3600, “Liebherr” ekskavatorlari, Furukawa, Epirog burg‘ulash dastgohlari, konveyyerlar va boshqa texnologik uskunalar uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan, – deydi zavod direktori Yuldosh G‘aniyev.

Bundan to‘rt yil muqaddam Xorazm viloyatining Tuproqqal’a tumani Sarimoy qishlog‘ida ta’mirlash mexanika uchastkasi ish boshlagandi. Hozir mazkur uchastkada 70 nafardan ortiq mahalliy fuqaro ishlayapti va 400 dan ortiq turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilib, bo‘linmalarga yetkazib berilmoqda. Bu yerda nasoslar uchun ehtiyot qismlar, uzellar, yarimmuftalar, har xil turdagi korpuslar, gaykalar, boltlar kabi mahsulotlarni yasash bilan birga konteynerlar, drenaj romlarni payvandlash usuli orqali detallarni ta’mirlash ishlari ham amalga oshirilmoqda. Uchastka ish boshlagan vaqtdan to shu kunga qadar 23 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Aziza HUSANOVA.

■ 2025-yil – Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili”

NAVOIY ORZUSIDAGI FARHODLAR

MEHNAT QILAYOTGAN ULKAN KORXONA

Prezidentimizning Navoiy viloyatida 2025-yilni Alisher Navoiyning tabarruk nomlari bilan atash to‘g‘risidagi qarori barcha ma’naviyat ahlini sevintirdi, ijodkorlarga ilhom ulashdi, har bir navoiylik qalbiga g‘urur joyladi. Hazrat nomlarila ataluvchi viloyatning ulkan korxonasida ishlayotganim bir baxtim bo‘lsa, yana bir faxr-iftixorim ul nuroniy zot orzulagan Farhodu Shirindek shijoatli, mehnatsevar, fidoyi insonlarni kitobda emas, hayotda – kon-metallurgiya sohasi jarayonlarida uchratganimdir.

Qizilqum tabiati o‘zgacha: yoz jaziramasida qanot qoqqan qushning pati kuygudek, qishining ayozi jondan o‘tgudek achchiq. Sahro bu yerda yashovchi odam bolasi va cho‘l nabototini obdon sinovdan o‘tkazadi. Bu yerda mehnat qilayotganlarni hech mubolag‘asiz qahramonlar, deyish mumkin. “Dovg‘iztov” konida ko‘plar ibrat olgulik, bir osmon ostida yashab, bir havodan nafas olayotgan zamondoshlariga fidoyilik namunasi bo‘lishga munosib zamon qahramonlarini – hazrat Navoiy orzusidagi Farhodlarni uchratdim.

“Dovg‘iztov” konida Davriy oqim texnologiyasi kompleksi ishga tushirilishi munosabati bilan Uchquduqdan 140 kilometr uzoqlikda joylashgan konda bo‘ldik. Kongacha chamasi ikki yarim soatliklik masofa. Odatda, yo‘llar menga ilhom beradi, “Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra” maqolining mushohadasini anglayman. Axir, minglab odamlarni ko‘rgan, kutib-kuzatgan bu yo‘llarda hikmatu afsonalar mil-mil.

Dovg‘iztovga boraversangiz yo‘lning chap tomonida Devqiztog‘ bo‘y ko‘rsataveradi: boshida ko‘zlaringiz bu oddiy bo‘lib ko‘ringan qoyalardan ma’no izlamaydi, biroq, qozoq xalqining afsonalari xayolingizdan o‘tishi bilan, ko‘z oldingizda katta-kichik, mayda-chuyda qoyalar uyquda yotgan ulkan alpkelbat qiz haybatini “yasaydi”. Uyqudagi go‘zal! “Voajab! Tog‘lar ham odamlardek bir-biriga o‘xshash bo‘larkan-da?!”, deya hayratlanasiz. Bir necha yillar oldin Namanganning Qirg‘iziston bilan chegaradosh tog‘larida yer sathidan ancha balandlikda, mana shunday “uyqudagi go‘zal”ni ko‘rgandim. Tabiatga beqiyos va mukammal sayqal bergan Egam gul vodiy va sahro “go‘zallari”ni ham egiz qilib yaratibdi! Afsonalarga ko‘ra, bugun, biz yo‘l olgan Dovg‘iztov qo‘rg‘oniga yaqin joyda allazamonlar tug‘ilgan devqiz o‘z ovulidagilardan qattiq ranjib, sahroga bosh olib chiqib ketgan va ana shu kengliklarda osmonga tikilganicha mangu uyquga ketgan ekan. Abadiy oromdagi ulkan qiz asrlar osha tog‘-toshga aylangan va u uyquga ketgan hudud Deo‘ (kattakon) g‘ыz (qiz) tauv (tog‘i) deb atala boshlangan. Dovg‘iztovning tarixi shunaqa.

“Dovg‘iztov” konida ishga tushirilgan Davriy oqim kompleksi ilm-shijoatli, dovyurak, o‘z kasbini astoydil sevuvchi mutaxassis xodimlarning mehnatlari mahsuli sifatida qad rostladi. Shimoliy kon boshqarmasida birinchi marta qurilgan ushbu majmua “Dovg‘iztov” konida kon texnikalari orqali tog‘ jinslarini tashish masofasini qisqartirish va yoqilg‘i-moy mahsulotlari xarajatlarini kamaytirish hamda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda dunyo miqyosida, har bir sohada, xususan, kon-metallurgiya sanoatida ham keskin raqobat ketayotgan muhitda, ishlab chiqarishda o‘z imkoniyatlarini yarata olayotganlargina ayni vaqtdagi shiddatli evrilishlar muhitida yuksak mavqeini saqlab qoladi. Davriy oqim texnologiyasi majmuasi ham zukko mutaxassislarning ilmiy-texnologik g‘oyalari mahsulidir. Zahmatli mehnat samarasini ko‘rish hamisha zavqli.

Vatan iqtisodiyoti yo‘lidagi har qanday mashaqqatni sharaf bilib, astoydil ishga kirishgan, cho‘l shamoli yuzlarini qoraytirgan mutaxassislar va ishchilar – bugungi kun Farhodlari – Yevgeniy Serkov, Botirjon Ishmatov, Oybek Asadovdek oq-sariqdan kelgan yigitlarning yuzlarini qoraytirgan quyosh bugun ularning yuzida porlayotgandek! Ularning tabiat injiqliklariyu kunning qaysi mahali bo‘lishidan qat’iy nazar, kasblariga sadoqat bilan qilgan xizmatlari katta iqtisodiy samara olish kutilayotgan majmuaning tez fursatlarda ishga tushirilishiga olib keldi. Ulkan texnologik majmuaga qarab, o‘rta asrlarda, sohibqiron Temur bobomizning: “Qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurdirgan binolarga boqing!”, degan so‘zlari naqadar to‘g‘riligini tushunish mumkin. Haqiqatan ham, kompleks bugungi asrimizda yashayotgan, teran fikrli, izlanuvchan, o‘ziga nisbatan talabchan, mohir, maqsadi sari olg‘a boruvchi davr qahramonlarining kuch-qudrati ifodasi bo‘ldi. Ularni kuzata turib, asrlar ortida, “Xamsa”da, Farhodga berilgan ta’rif, bugun, kombinatimizning yuzlab Farhodlariga naqadar munosibu muvofiq ekanini xis etasan kishi:

Bularni qo‘yki har ustodi mohir,
Ki qildi san’atin ul uyda zohir.
Chu har yon mayli hardam zohir o‘ldi,
Ul ishda ustodi mohir o‘ldi...

Nilufar MUYDINOVA,
ShKB Axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhi rahbari.

■ Oramizdagi odamlar

OILASI – UNING BAXT QO‘RG‘ONI

Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, el-yurt uchun munosib farzandlar tarbiyalash – bu ulug‘ va sharafli ishdir. Mehribon va oqila ayollarimiz turli soha va tarmoqlarda fidokorona xizmat qilib, yurtimiz ravnaqiga munosib hissalarini qo‘shmoqdalar. Navoiy mashinasozlik zavodi markaziy zavod laboratoriyasi texnigi, korxonaning xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mas’uli, kasaba uyushma qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Sanobar Turobova shunday ayollar jumlasidan.

– Bugungi kunda xotin-qizlarga berilgan imtiyoz, imkoniyatlar har qachongidan yaxshiroq. Ayni paytda uch yarim ming nafarga yaqin ishchi-xodimlardan iborat jamoamizning 700 nafarga yaqinini tashkil qilayotgan xotin-qizlarimiz bunga o‘z hayotlari misolida guvoh bo‘lmoqdalar. Ular ishlab chiqarishning turli uchastkalarida erkaklar bilan bab-baravar mehnat qilishmoqda, – deydi S.Turobova. – Bizning vazifamiz Konstitutsiyamiz va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilganidek, ishlovchi ayollarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, opa-singillarimizning faolligini oshirish, ularga ma’naviy-ruhiy madad berish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Sanobar Turobova mehnat faoliyatini 1992-yil “Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasida kimyoviy tahlil laborantligidan boshlagan. Keyinchalik Navoiy viloyat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi nazorat-tahlil inspeksiyasi mutaxassisi, yetakchi mutaxassisi bo‘lib ishlagan. 2001-yildan to hozirgi vaqtgacha Navoiy mashinasozlik zavodining markaziy laboratoriyasida ishlab kelmoqda.

– Spektral-tahlil laboratoriyamiz eng zamonaviy va davr talabiga javob beradigan laboratoriyalardan biri bo‘lib, Germaniyaning ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan tahlillarni amalga oshiradigan yuqori aniqlikga ega asbob-uskunalari bilan jihozlangan. Ayni vaqtda bu yerda 40 nafardan ortiq xodim ishlaydi. Mening vazifam doirasiga texnologik jarayonning nazoratini o‘z vaqtida va sifatli tashkil qilish, xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni tekshirish, tahlil va sinov o‘tkazish uchun texnologik namunalarni qabul qilish, ularning mexanik va asosiy xususiyatlarini standartlar va texnik shartlar talablariga mosligi bo‘yicha tahlillar va sinovlarni bajarish, sinov natijalarini rasmiylashtirish, bajarilgan ishlar bo‘yicha texnik hujjatlarni tuzish, korxonaning tegishli bo‘linmalarini o‘z vaqtida xabardor qilish kiradi. Laboratoriyamizda qilingan tahlil natijalari 100 foiz aniqlikda bajarilganligi bois, biz nafaqat zavod, balki talabnomalar asosida kombinat bo‘linmalari va kelishilgan holda, chet tashkilot va korxonalarga ham xizmat ko‘rsatamiz.

Ishlab chiqarishdagi faoliyatidan tashqari oila yumushlari, farzandlar tarbiyasi bilan ham shug‘ullanayotgan xotin-qizlarimizning har biri o‘z ishining ustasidir. Opa-singillarimizning mehnatlari doimo qadrlangan va munosib taqdirlanib kelinmoqda. Kran mashinistlari Dildor Tilabova va Sevinch Saidova, temirchilik-presslash sexi mashinisti Zulfiya Axmedovalar “Mehnat shuhrati” ordeni, “Kelajak bunyodkori” davlat mukofoti, “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlanishgan.

Navoiy mashinasozlik zavodi 2018-yil dekabr oyida “Gender tenglik faoli” milliy tanlovida “Gender tenglikni ta’minlashda eng faol hududiy davlat organi” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi. Ayollarimiz o‘tkaziladigan barcha bayramlar, tadbirlar, spartakiadalarda faol qatnashishmoqda. “Oltin ayol” ko‘rik-tanlovida esa doim birinchilar qatoridadir. Ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj ishchi-xodimlarimiz e’tibordan chetda emas, ularga moddiy yordam ko‘rsatilib, oziq-ovqatlar to‘plami berib boriladi, sog‘liqlarini tiklash uchun esa sihatgohlarga yo‘llanmalar ajratiladi. Bu ishlarning olib borilishida kasaba uyushma qo‘mitasi raisi B.Ergashev, qo‘mita faollari S.Tog‘ayeva, R.Fayzullayeva, Ye.Yuldashevalarning mehnatlari kattadir, – deydi S.Turobova.

– Sanobar Xamidovna ayol qalbini tushuna oladigan inson, qaysi masalada murojaat qilmaylik, har doim yordam berishga harakat qiladilar. Har birimizning dardimizni o‘zinikiday qabul qiladigan va ularning yechimini topishga harakat qiladigan oqila ayol, – deydi tikuv sexi ishchisi F.Ro‘ziyeva.

Haqiqatdan, qisqa, ammo mazmunli suhbatimiz davomida bunga amin bo‘ldim. Nafaqat o‘zi, balki boshqalar g‘amu tashvishi bilan yashaydigan, ularning og‘irini yengil qilishdan quvonadigan, huzur-halovat topadigan, ezgu ishlaridan qoniqish tuyadigan bunday fidoyilarni ishonch bilan o‘z o‘rnidagi inson deya olamiz...

Ayolning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishi uchun oilasida tinchlik va farovonlik, baxt hukmron bo‘lishi zarur. Sanobarxon xuddi shunday taqdirga ega ayol. Turmush o‘rtog‘i Rustam aka bilan voyaga yetkazgan farzandlarining kattasi Asalxon Navoiy davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi, ayni vaqtda doktoranturada o‘qimoqda. O‘g‘li Otabekjon Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining iqtisod yo‘nalishi 4-bosqich talabasi. Nevarasi Shaxzodjon esa bobo va buvilarining ovunchog‘i. Shundan bo‘lsa kerakki, S.Turobovaning yuz-ko‘zlarida hayotidan shukronalik yolqinlanib turadi.

A.AXMEDOVA suhbatlashdi

■ Xotin-qizlar haqida hikoyalar

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ishchilarning mehnat sharoitlarini doimiy ravishda yaxshilab borish dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Markaziy kon boshqarmasiga qarashli Mehnat sharoitlari nazorati va atrof-muhitni muhofaza qilish markaziy laboratoriyasi jamoasi ham 35 yildan ortiq vaqt mobaynida ana shu vazifani bajarib kelmoqda.

“OILAM – BAXTIM, KASBIM – FAXRIM”

Laboratoriyada tajribali, o‘z ishining fidoiysi bo‘lgan 14 nafar laborant faoliyat olib bormoqda. Ularning asosiy vazifasi sanoat obyektlaridagi yer osti suvlarining tarkibidagi zararli moddalarni aniqlash hamda kon boshqarmasi bo‘linmalaridagi xodimlarning sog‘ligiga salbiy ta’sir etuvchi turli xil kimyoviy omillar o‘lchovini kuzatib, aniq ma’lumotlarni yetkazib berishdan iborat. Laboratoriyaning muhandis-geodezisti Mansur Buzrukov sanoat obyektlaridagi bino va inshootlarning texnik holatini muntazam kuzatib boradi.

Mazkur laboratoriya tarkibidagi Atrof-muhitni muhofaza qilish laboratoriyasi boshlig‘i Navbahor Xo‘jayevaning ish faoliyati bilan tanishdik. U Navoiy davlat konchilik instituti, hozirgi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining kimyoviy texnologiya va biotexnologiya bo‘limini tugatgach, 1999-yilda ilk ish faoliyatini mazkur laboratoriyada kimyoviy tahlil laboranti vazifasidan boshlagan. Lyubov Volkova, Nelli Kandaurova, Tamara Yansen kabi ustozlardan ishlarni sifatli va tez bajarish kerakligini o‘rganib, o‘rnak olgan Navbahor opa bugungi kunda mazkur laboratoriya boshlig‘i darajasiga yetdi. Opa laboratoriya ishlarida texnik, tashkiliy va metodik boshqaruvni amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha joriy hamda istiqbolli rejalar tuzish, chora-tadbirlar ishlab chiqish bilan birga kon boshqarmasi bo‘linmalarida atrof-muhitga zararli ta’sirlarni kamaytirishga qaratilgan ishlarning bajarilishini ham nazorat qilib boradi.

Laboratoriya ishchi-xodimlari doimiy ravishda O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish malaka oshirish institutida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha malakalarini oshirishadi. N.Xo‘jayeva ratsionalizatorlik takliflari muallifi hamdir. Uning “Distilyatordan kanalizatsiyaga oqib ketayotgan suvni ikkinchi marotaba qayta ishlatish” mavzusidagi ratsionalizatorlik taklifi boshqarmaning Ishlab chiqarish – texnik va innovatsion xizmati tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, qo‘llanilayotganligi tufayli bir kunda 40 litrga yaqin ichimlik suvi tejab qolinmoqda.

– 26 yillik faoliyatim davomida shu narsaga amin bo‘ldimki, agar inson o‘z kasbiga sadoqatli bo‘lsa, sabr-toqat bilan harakat qilsa, izlansa, albatta yuqori natijalarga erishadi, – deydi Navbahor opa. – Men tanlagan kasbimdan faxrlanaman. Mana shu kasbim ortidan bir necha bor kombinat va kon boshqarmasi Faxriy yorliqlariga munosib ko‘rilgan bo‘lsam, o‘tgan yili 3-darajali “Konchilik shuhrati” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim. Bunday e’tibordan kuch olib, yanada mas’uliyat va shijoat bilan faoliyatimni olib bormoqdaman. Shogirdlarimga ham doimo berilgan vazifani o‘z vaqtida, tezkorlik bilan bajarish kerakligini uqtiraman.

– Men faoliyatimni boshlagan vaqtimda Navbahor opa menga ustozlik qilganlar. Doimo tahlillarni o‘z vaqtida o‘tkazish, aniq ma’lumotlarni tayyorlash, ishga mas’uliyat bilan yondashish, eng asosiysi mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga roiya qilish kerakligini hamda ko‘proq kitob mutolaa qilishni ta’kidlaganlar. Navbahor opa nafaqat ishda, balki jamoatchilik tadbirlarida ham juda faol. Laboratoriyamizda tashkil etiladigan barcha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda, sport musobaqalarida doimo ishtirok etib keladi. Opani jamoamizda “Laboratoriyamiz malikasi” deya barcha hurmat qiladi, – deydi kimyoviy tahlil laboranti Nozima Nosirova.

Navbahor opa Xo‘jayeva turmush o‘rtog‘i Avaz aka bilan uch nafar qizni tarbiyalab voyaga yetkazyaptilar. Katta qizlari Nigina o‘tgan yili Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetini tugallagan bo‘lsa, ikkinchi qizi Munisa Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi, kichiklari Mexruza hali maktab o‘quvchisi.

“Oilam – baxtim, kasbim – faxrim”, - deydi Navbahor opa kamtarlik bilan. Nazarimda bu so‘zlarda uning hayot mazmuni to‘la ifodalangan.

Aziza IRISOVA

■ Bilib qo‘ygan yaxshi

KONLARNING YANGICHA NOMLANISHI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasidagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi qarori bilan bir qancha foydali qazilma koni nomlari davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiqlashtirildi. Mazkur kon nomlarini bosqichma-bosqich e’tiboringizga havola etib boramiz.

T/r	Konning amaldagi nomi	Konning davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiqlashtirilgan nomi
1	Adjibugut	Hojibo‘g‘ot
2	Aytim	Aytim
3	Aksay	Oqsoy
4	Aktauskaya ploshad	Oqtov
5	Altin-Kazgan	Oltinqazgan
6	Altshsay	Oltinsoy
7	Amantaytau	Omontoytov
8	Aristantau	Arslontov
9	Asaukak	Asovqoq
10	Aulbek	Ovulbek
11	Baymin	Boymin
12	Beshkak	Beshqoq
13	Biran	Biron
14	Birinchi Sentyabr	Birinchi sentyabr
15	Boztau	Bo‘ztov

(Davomi kelgusi sonlarda)

■ Hikoya

Mo‘tti

Said AHMAD

Inomjon avtobusdan tushishi bilanoq, shaharda majnun bo‘lib yurmay deb sartaroshxonaga kirdi. Usta yuziga sovun surayotganida oynadan qiziq bir narsani ko‘rib qoldi. Ikki qovog‘iga avtobus biletidek qog‘oz yopishtirib olgan qoshi ipdek bir qiz qo‘llarini stolga qo‘yib qimirlamay o‘tiribdi. Oq xalat kiygan xotin uning tirnog‘ini bo‘yayotibdi. Inomjon bu qizni qayerdadir ko‘rgandek bo‘ldi. O‘ylab-o‘ylab eslolmadi.

Uzoqdan ko‘rgan, yaqindan ko‘rgan, gaplashgan jamiki qizlarni bir-bir esladi. Biroq ular orasidan bu qizni topolmadi.

Usta uning soqollarini qirtishlab, sochlarini tekislab ham bo‘ldiki, Inomjon xayoldan bo‘shamadi. Vashillatib yuziga atir sepgandagina yuzi achishib, o‘ziga keldi. U o‘rnidan turib tashqariga chiqayotganda atayin qizga tikilib qarab o‘tib ketdi.

Inomjon papiros chekdi. U yoq-bu yoqqa yurib o‘yladi, skameykaga o‘tirib o‘yladi. Derazadan bosh suqib yana ichkariga qaradi. Endi usta qizning qovog‘idan qog‘ozlarni olib, kiprigini to‘mtoq qaychi bilan qayirayotgan edi.

Inomjon, to qiz ishini bitirib chiqqunicha, poylashga ahd qildi. Oxiri qiz savzi taxtadek sumkasini ko‘ltig‘iga suqib, ichkaridan chiqdi.

Uning egnida oq kapron kofta. Ichki kiyimlarining tasmalari bemalol ko‘rinib turibdi. Razm solib qaragan odam yuzidagi sepkilidan yelkalarida ham borligini bilib olsa bo‘ladi. Belini qizil kamar bilan shunday siqib bog‘labdiki, ikki bo‘lak odamga o‘xshaydi. Agar jindek egilsa yuqorisi tushib ketadigandek. U Inomjonning o‘ziga tikilib turganini sezganidan ataylab g‘amza bilan yonidan o‘tdi. Inomjon bezovtalandi. “Chekilmasin!” deyilgan joyda papiros chekib qo‘ygandek, hali muhabbat o‘ti tushmagan yigit yuragiga g‘ulg‘ula tushdi. Inomjon beixtiyor unga ergashdi. Qiz to‘xtab, magazin vitrinasiga o‘zini solib, sochlarini tuzatib oldi. Keyin masxara qilayotgandek bir iljaydi-da, to‘xtagan avtobusga ildam chiqib oldi.

Inomjon Ohangaronga bundan oldin ham bir kelgan. Kursdoshlari bilan praktikaga kelib konga tushgan. Smena masteri uni birinchi marta yer ostiga olib tushganida Inomjonning bo‘ladigani bo‘lgan edi. Bir yelkasida gaz niqob, bir yelkasida batareya, peshonasida chiroq, tepasida uch yuz metr qalinlikdagi yer. U yonidan-bu yonidan vagonetka guvillab yuguradi, oyog‘ining tagidan transportyor lentasi g‘iqillab o‘tadi. Bu yerning turgan-bitgani vahima bo‘lib tuyulgan edi unga. Rangi qum oqarib, tili gapga kelmay qolgandi. O‘shanda master uning rangini ko‘rib qo‘rqib ketgan, smenasini tugatib chiqayotgan strelkachi qizdan uni yuqoriga “berib yuborgan” edi. Qiz tushmagur ham juda shayton ekan. Aft-basharasi qop-qora, xuddi mo‘ri tozalaganga o‘xshaydi. Har kulganida oppoq tishlari qorong‘ida gugurt chaqqandek yaltiraydi. Ayniqsa, yer yuziga olib chiqadigan kiletning tushishini kutib o‘tirishganda “Erga chiqqanimizda yarim soatcha ko‘zingizni chirt yumib oling, birinchi marta qorong‘ida o‘rgangan ko‘z yoruqqa chidamay, ko‘r bo‘lib qoladi” deb tayinlagan edi.

Ular yerga chiqishganida qiz uni bir chekkaga o‘tqazib, o‘zi allaqayoqqa g‘oyib bo‘ldi.

Inomjon ko‘zini yumib, o‘tgan-ketgandan soat so‘rab diqqat bo‘lib ketdi. Yo‘lovchi bir kishi, bu bola ko‘r bo‘lib qopti, degan gumon bilan uning oldiga keldi. Gapga solib ko‘rsa, uni kimdir laqillatgan ekan.

E, ko‘zingni och, bola, kim nima desa ishonaverasanmi.

Inomjon diliga ozor bergan o‘sha kizni qayta uchratmadi. Uchratganida ham uni taniyolarmidi? Buning ustiga, praktika tugab, Inomjon Toshkentga qaytib ketgandi. Ammo bu sirni lom-mim deb birovga aytmadi. U aytmagan bo‘lsa ham Ohangaronda Mo‘ttixon-Lo‘ttixon bir yigitni laqillatgani doston bo‘lgan edi. Albatta, bu gaplardan Inomjonning xabari yo‘q.

Hozir Inomjon qiz ketgan tomonga angrayib turib o‘sha bo‘lgan voqeani eslab, xijolatlikdan iljayib qo‘ydi. Bugun dam olish arafasi bo‘lganidan shaxta boshlig‘iga barvaqtroq uchrashib, boshqarma yo‘llanmasini topshirishi, qayerda va kim bo‘lib ishlashini aniqlab olishi kerak.

Inomjon qadamini jadallab, kon boshqarmasiga qarab ketdi. O‘sha kuniyoq uni navalootboyshchiklar brigadasiga shogirdlikka tayin qilishdi. Yotoq oldi. Brigada boshlig‘i kallador, o‘rta barmog‘iga uzuk takkan yigit ekan. U Inomjonga boshdan oyoq qarab chiqdi-da, uning labidagi “Belomor”ini yulib olib, tufdonga uloqtirdi. Keyin devordagi “Ichadigan, chekadigan odam konchi bo‘lmay qo‘ya qolsin!” degan yozuvni ko‘rsatdi. Inomjon indamay serrayib turardi.

Dam olish kuni yigitlar Teshiktoshning samovarida osh qilishdi. Brigadir Inomjonni ham olib ketdi. Yo‘lda yaxshi ko‘rgan qizi bormi-yo‘qligini so‘radi.

— Hali yosh ekansan, ehtiyot bo‘l, Lo‘ttiga o‘xshaganlarning qo‘liga tushib qolma tag‘in. U shayton-a!

Inomjon Lo‘tti kim, nega laqillatib ketadi, — bu to‘g‘rida so‘ramadi.

— Bultur texnikumdan kelgan bo‘sh bayovgina praktikant bolani bir soat ko‘zini yumdirib qo‘yib, laqillatib ketgan. Sen ham o‘shanaqalarning qo‘liga tushib qolma!

Inomjon qizarib ketdi, ammo lommim deb og‘iz ochmadi.

Osh ustida bo‘lgan gapdan ma’lum bo‘ldiki, nomi Mo‘tti bo‘lsa ham ko‘p yigitlarni laqillatganidan Lo‘tti deb nom olgan bu qiz shahardagi eng tamtamlarning biri ekan. Unga gap qotmagan, undan dakki yemagan bironta ham o‘spirin qolmabdi. Xullas, bu qiz o‘z ko‘ngliga mos yigit muhabbatini izlardi.

Ertasiga Inomjon konga tushdi. Brigadir Inomjonni o‘z yonidan nari ketkizmadi. Zaboyga yetib kelishganda pnevmatik bolg‘ani uning qo‘liga berib, qanday ushlashni, qatlamga qanday botirishni ko‘rsatdi. Bu ishlarni Inomjon bilardi. Texnikumda o‘qib yurganida yer tagida bo‘lmasa ham, ochiq kar’erda bunaqa bolta bilan ko‘mir ko‘chirgan edi. Shuning uchun ham qo‘li kelisha qoldi. Brigadir uning ishini kuzatib turganida smena masteri kelib, yuqorida boshliq chaqirayotganini aytdi. Brigadir zaboyda Inomjonni yolg‘iz qoldirib, engashgancha orqasiga qaytdi. Inomjon ishga berilib, ko‘mir qatlamlarini palaxsa-palaxsa qilib ko‘chira boshladi. Ko‘chgan ko‘mir xarsanglari transportyor lentasida qorong‘i yo‘laklarga kirib ketmoqda. Qo‘lida, tinimsiz titrab turgan og‘ir bolg‘aning harakatidan Inomjonning bilagi tolib ketdi. Motorni o‘chirib, birpas orom olish uchun ko‘mir xarsangiga o‘tirdi. O‘tirdiyu, yuragini vahm bosib ketdi. Qayerda o‘tiribdi? Uch yuz metr yerning tagidaya! Uning tepasida necha ming tonna yer. Inomjon ko‘zlarini pirpiratib sekin tepaga qaradi. Og‘ir yer qatlamini ko‘tarib turgan yo‘g‘on tirgovich xodalar qisirlaydi. Xuddi yer siljib shu xodalarni gugurt cho‘pidek maydalab tashlaydigandek. Zaboy og‘zida tirgovichga suyanib bir qiz ko‘zlarini katta-katta ochib turardi:

— Yer cho‘kyapti. Yelkang bilan tirab tur, hozir avariya brigadasini chaqiraman!

Qiz shunday dedi-yu, g‘oyib bo‘ldi. Inomjon shaxt o‘rnidan turib, tepasidagi kattakon ko‘mir xarsangiga yelkasini tiradi. U shu bo‘yi qancha turganini eslolmadi. Brigadir kelganda ham shu ahvolda turardi.

— Nima qilib turibsiz? Nega ishlamayapsan?

— Yer cho‘kyapti, ko‘tarib turibman. Brigadirning jahli chiqib ketdi.

— Laqma bola ekansan-ku! Kim aytdi senga ko‘tarib tur deb?

— Bir qiz shunday dedi, o‘zi avariya brigadasini chaqirgani ketdi.

— E ovsar, sen ham Lo‘ttining qo‘liga tushibsan! Yer cho‘ksa, sen ko‘tarib qololarkansanmi? Bor, ishingni qil!

Inomjon o‘sal bo‘lganidan, zirqirab og‘rib turgan yelkasini silab, bolg‘ani qo‘liga oldi. Birdan uning esiga o‘tgan yili laqillatib ketgan qizning oppoq tishlari ko‘rinib ketdi.

O‘sha! O‘sha shaddod qiz, bugun ham qo‘lga tushirdi uni!

Kechqurun yotoqda faqat shu gap bo‘ldi. Yigitlar qotib-qotib kulishar, Inomjonni ermak qilishardi…

Oradan o‘n besh kun o‘tdi. Bu orada Inomjon yigitlarga goh ermak bo‘ldi, goh ularni ish bilan qoyil qoldirdi. Birinchi maosh kuni smena tugamasdan zaboyga bosh injener tushdi. U Inomjonning ishlarini ilgarilar ham zimdan kuzatib yurar ekan, ayniqsa, bugun uning ishni bemalol uddalayotganini ko‘rib, shogirdlikdan mustaqil navalootboyishchilikka o‘tishga ruxsat berib ketdi.

U garderobda gazniqob, fonar va batareyalarni topshirayotganda ikki marta uni laqillatib ketgan o‘sha Mo‘ttixon bir buklam qog‘oz uzatdi. U shoshib qog‘ozni ochdi. Xat. “Mustaqil ishga o‘tishingiz bilan tabriklayman. Vaqtingiz bo‘lsa, hamyotoqlaringizga chap berib, soat olti yarimda konchilar madaniyat saroyiga keling. Mo‘tti”.

Inomjon avvaliga, bu qiz meni yana laqillatyapti, deb o‘yladi. Xatni yoniga solib, birinchi maoshidan pochchasiga sovg‘a olish uchun magazinga qarab ketdi.

Inomjon yetimlikda o‘sgan bola. U opasining qo‘lida tarbiya ko‘rgan. Pochchasi uncha topishli-tutishli bo‘lmasa ham, yetim bolalarni bag‘riga olib, o‘ksitmay yeb-ichirdi. Ishchi odam ro‘zg‘ordan siqishtirib, Inomjonning texnikumni bitirishiga yangi kostyum olib berdi. Erining odamgarchiligidan opasi yig‘lab ham oldi. Er-xotin uni bundan o‘n besh kun oldin uchirma qilib, Ohangaronga ishga kuzatib qolishdi. Ketayotganida opasi uni chetga chaqirib: “Birinchi maosh olganingda kichkinagina bo‘lsa ham, pochchangga sovg‘a ol, sevinadi” deb tayinlagan edi. Inomjon shunday qildi. Birinchi maoshdan pochchasiga etik oldi.

Yotoqqa qaytib kelsa, yigitlar har yoqqa ketib qolishibdi. U nima qilishini bilmay, ko‘chadagi skameykaga o‘tirib, o‘tgan-ketganlarni tomosha qila boshladi. Bir mahal uning dimog‘iga atir hidi gupillab urildi. Qarasa, birinchi kuni kelganida sartaroshxonada ko‘rgan stilyaga qiz undan uch-to‘rt qadam narida iljayib turibdi. Uning egnida o‘sha kapron kofta. Yuzidagi sepkillari upa qo‘yganidan bilinmay ketibdi. Inomjonning yuragi gupillab ura boshladi. Qiz unga tomon ikki qadam bosdi.

— Mumkinmi, bir og‘iz gap so‘rasam? Inomjon nima deyishini bilmay dovdiradi.

Qiz kulib yubordi. Uning oppoq tishlari unga juda tanish ko‘rindi.

— Siz, siz o‘sha Mo‘ttixon…

Qiz ingichka qoshlarini kerib iljaydi. Inomjon serraygancha turib qoldi.

Shahar stilyagalarini bir cho‘qishda qochiradigan bu qiz Inomjonni tamoman lol qilib qo‘ygan edi. Bundan bir soat avvalgi ahvolini ko‘rgan odam uni mutlaqo tanimasdi. Boya uning aft-basharasini qop-qora, boshidagi yashil kosinkasi ham ko‘mir qurumidan qorayib ketgan, egnidagi qalin brezent kurtkasi, shimi, yelkasiga osib olgan gazniqob, batareya, oyog‘idagi rezinka etik uni tamoman boshqa odam qilib qo‘ygan edi.

Endi-chi, qurum bosgan basharasiga upa qo‘ygan, egnida oq kapron kofta, oyog‘iga poshnasi bigiz tufli kiygan, sochini hurpaytirib, butun yelkasiga to‘zg‘itib yuborgan, labi qip-qizil, o‘zi bo‘lsa atirga cho‘milgandek.

Inomjon ikki marta laqillab, oxiri uning muhabbatiga sazovor bo‘lganini bilmay qoldi. Ham ishni, ham oliftagarchilikni qoyil qiladigan shayton qiz endi Inomjonni o‘ziga tamoman rom qilib olgan edi. Inomjon muhabbat to‘riga tushdi.

O‘sha kecha Inomjon yotoqqa hammadan kech qaytdi. Yigitlar undan xavotir olib, ancha vaqtgacha uxlamay kutib o‘tirishdi. Ertalab qarashsa, Inomjondan gup-gup atir hidi keladi. Uyqusida ham iljayadi. Har baloni biladigan brigadir boshini sarak-sarak qilib, qoyil qolganini yashirolmadi:

— Tamom! Boladan ayrilibmiz!

Uning aytgani keldi. Kechalari Inomjon alla-pallagacha yo‘q bo‘lib ketadigan, komendantning ensasini qotirib, qoq yarim kechada shimiga dazmol bosadigan qiliq chiqazdi. Uning bu harakatlari yigitlarga malol kelsa ham, Mo‘ttining mehrini tortgan undagi allaqanday mehrigiyoga tan berishgan edi.

Bir kuni brigada smenadan chiqib kelayotganda Inomjon ulardan sug‘urilib strelkachi qiz Mo‘ttixonning oldida qoldi.

Olifta Mo‘ttixonning fasonlari yer yuzida qolgan. Qorakuyaga belanib ketgan bo‘lsa ham, bari bir ayollik hissi g‘olib kelib, bir stakan suvga ikkita atirgulni solib qo‘yibdi. Tuyaning ko‘zidek oynachaga qarab hadeb sochini tuzatar, labiga hafsala bilan pomada surardi.

Birinchi smena ishni tugatib, yerga chiqib ketgan, ikkinchi smena hali tushmagan. Yer tagida ulardan boshqa odam bolasi yo‘q edi.

Qora yerning qa’rida shamol guvillaydi. Yer qatlami siljib shitirlaydi. Yo‘g‘on tirgovichlar qisirlab sinadi. Yuqoridan silqib kelayotgan suvlar chak-chak tomadi.

Qorakuyaga belangan ikki oshiq-ma’shuq hech narsani sezmaydi.

Qora tunnellardagi chiroqlar ularga bahor osmonining chaqnagan yulduzlari, tomayotgan suvlari savr oyining jalasi, tirgovichlarning qasirlashi ko‘klam momaqaldiroqlari bo‘lib tuyuladi.

Tepada bosib yotgan necha yuz ming tonnali yer qatlamini muhabbatning azamat yelkasi ko‘tarib turgandek edi.

1961-yil.

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS: “NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.

Muharrir: **Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

Tahririyat manzili: 210100. Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy, “NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar: Muharrir: 79 227-74-64. Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg‘armasi” DM bo‘linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo‘yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Adiba AXMEDOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog‘oz bichimi A2. 11700 nusxada chop etildi. Buyurtma № 196. 2025-yil 7-aprel 17:00 da chop etishga topshirildi.